

ASEPTIKA VA ANTISEPTIKA TUSHUNCHASI. YATROGENIYA HAQIDA

Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti

Stomatologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi

Salohiddinova E'zoza

Stomatologiyada aseptika va antiseptika tushunchalari tish kasalliklarining oldini olish va jarrohlik hamda terapevtik muolajalar davomida infeksiya xavfini kamaytirishda eng muhim tamoyillardan biridir. Zamonaviy stomatologiyada bemor salomatligini saqlash, asoratlar rivojlanishining oldini olish, og'iz bo'shlig'iga tushishi mumkin bo'lgan patogen mikroorganizmlarni cheklash va mavjud infeksiyalarni bartaraf etish uchun aseptik va antiseptik qoidalarga qat'iy rioya qilish zarur hisoblanadi. **Aseptika** avvalo, mikroblarning operatsion jarayon yoki davolash jarayoni vaqtida to'qimalarga tushishining oldini olishga qaratilgan tadbirlar majmui bo'lib, stomatologik kabinetni, asbob-uskunalarini, qo'lqop, niqob va xalat kabi himoya vositalarini toza va steril holatda bo'lishini talab qiladi. Stomatologiyada aseptika sterilizatsiya, dezinfeksiya, toza havo almashinuvi, asboblarni avtoklavda qayta ishlash, bir martalik asbob-uskunalaridan foydalanish, shifokor va yordamchi xodimlarning qo'llarni to'g'ri yuvishi hamda himoya kiyimlarini almashtirib turishini o'z ichiga oladi. Aseptik talablarning to'g'ri bajarilishi bemorga infektsion agentlar tushishining oldini olib, jarrohlik va terapevtik amaliyotning xavfsizligini oshiradi.

Antiseptika esa aseptikaning mantiqiy davomchisi bo'lib, allaqachon og'iz bo'shlig'iga yoki stomatologik jarrohlik maydoniga tushib qolgan mikroorganizmlarni yo'q qilishga qaratilgan usullar majmuasidir. Antiseptika stomatologiyada juda keng qo'llanadi, chunki og'iz bo'shlig'i tabiatan mikroblarga boy muhit bo'lib, muolaja vaqtida infeksiya rivojlanishi ehtimoli yuqori. Antiseptikaning asosiy usullari kimyoviy, fizik, mexanik va biologik shakllarda namoyon bo'ladi. Kimyoviy antiseptiklar sifatida stomatologik amaliyotda

xlorgeksidin, furatsillin, vodorod peroksid, yod eritmalari, spirtli eritmalar va maxsus og'iz chayqash vositalari keng qo'llaniladi. Fizik antisepsiya usullari orasida lazer nurlaridan foydalanish, ultrabinafsha nurlanish, issiqlik bilan ishlav berish va drenaj qo'yish muhim o'rin tutadi. Mexanik antisepsiya esa karies bo'shlig'ini tozalash, yiring yoki nekrotik to'qimalarni olib tashlash, yuvish va sug'orish orqali mikroblarni kamaytirishdan iborat. Biologik antisepsiya esa antibiotiklar va bakteriofaglardan foydalanishni o'z ichiga oladi, ular og'ir infeksiya jarayonlarning oldini olish yoki ularni davolashda samarali hisoblanadi.

Stomatologiyada aseptika va antiseptika bir-birini to'ldiruvchi tamoyillar bo'lib, ular bemorda postoperatsion infeksiyalar, alveolit, parodont to'qimalaridagi yallig'lanishlar, endodontik asoratlar kabi muammolarning oldini olishda asosiy omil hisoblanadi. To'g'ri sanitariya-gigiyena talablari, zamonaviy sterilizatsiya texnologiyalari, antiseptik vositalar va infeksiyadan himoya protokollarining qo'llanishi stomatologik xizmat sifatini oshiradi va davolash jarayonining xavfsizligini ta'minlaydi. Shu sababli har bir stomatolog mutaxassis aseptika va antiseptikaning nazariy asoslarini chuqur bilishi, amaliyotda esa ularga to'liq rioya qilishi zarurdir, chunki bemorning sog'lig'i ushbu tamoyillarning to'g'ri amalga oshirilishiga bevosita bog'liq.

Yatrogeniya- bu shifokor, tibbiyot xodimi yoki tibbiy muolajalar ta'siri natijasida bemorda paydo bo'ladigan salbiy holat, kasallik yoki asoratdir. Atama yunoncha "iatros" – shifokor va "gennao" – keltirmoq so'zlaridan olingan bo'lib, "shifokor tomonidan keltirilgan holat" degan ma'noni anglatadi. Yatrogeniya turli sabablar bilan yuzaga kelishi mumkin: noto'g'ri tashxis, xato dori yozish, jarrohlik amaliyotidagi xatolar, tibbiy manipulyatsiyalar natijasidagi asoratlar, bemor bilan noto'g'ri muloqot, shuningdek dori vositalarining nojo'ya ta'sirlari. Ba'zan shifokorning keskin yoki noto'g'ri aytilgan gapi bemorda qo'rquv, tashvish yoki depressiya keltirib chiqarishi mumkin, bu holat psixogen yatrogeniya deb ataladi. Shuningdek, diagnostik tekshiruvlar vaqtida yuzaga keladigan kontrast allergiyasi, rentgen nuri ta'siri yoki tahlil jarayonidagi xatolar ham yatrogeniya turiga kiradi. Yatrogeniya oqibatida bemorda jismoniy shikastlanish, kasallikning og'irlashishi,

yangi kasallik paydo bo'lishi, ruhiy tushkunlik yoki hayot sifatining pasayishi kuzatilishi mumkin. Bunday holatlarning oldini olish uchun shifokorlar tibbiyot protokollariga qat'iy amal qilishi, aniq tashxis qo'yishi, dorilarni ehtiyotkorlik bilan tanlashi va bemor bilan to'g'ri, muloyim muloqot olib borishi zarur. Bemor esa o'zining kasallik tarixi, allergiyalari haqida to'liq ma'lumot berishi va shifokor ko'rsatmalariga to'liq amal qilishi kerak. Yatrogeniya tibbiyot etikasi nuqtai nazaridan "zarar keltirmaslik" tamoyili bilan bevosita bog'liq bo'lib, shifokor har bir tibbiy aralashuvning foyda va xavfini to'g'ri baholashi lozim. Shu tariqa, yatrogeniya- tibbiyotda oldini olish mumkin bo'lgan, ammo muhim nazoratni talab qiladigan murakkab holatdir.